
YANGI TARMOQ UCHUN KABEL TORTILMOQDA



Qo'shtepa tumanining "Istiqlol", "Dexqonobod", "Shahartepa", "Shomirza", "O'qchi", "Beshkapa" hamda "Paxtakor" mahallalari uchun yangi qurib yakuniga yetkazilgan 10 kVli elektr uzatish tarmog'i uchun kabel tortish ishlari bajarilmoqda.

Mazkur yangi tarmoq tumanning "Mumtoz" mahallasida joylashgan 110/10 kVli "Joybozor" podstansiyasi orqali elektr energiyasi bilan ta'minlanadi hamda yangi tarmoqning uzunligi 13,5 kilometrni tashkil etadi.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-13 16:29:19